

**ABDURAHMON JOMIY ILMIY MEROSI VA UNDA TARBIVAVIY AHAMIYATIGA  
OID MASALALAR****Xusanova Mushtariy Nuriddin qizi****Alisher Navoiy nomidagi****Toshkent Davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti 2-kurs talabasi****<https://doi.org/10.5281/zenodo.20093552>**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Abdurahmon Jomiyning ilmiy merosi, asarlarida tarbiyaviy ahamiyatga oid masalalar, “Bahoriston”, “Salomon va Absol” hamda pand-nasihathida yozilgan “Olijanoblarga tortiq” asarlari misolida tahlil qilingan.

**Аннотация:** В данной статье анализируется научное наследие Абдурахмана Джамии, а также воспитательное значение его произведений. В частности, рассматриваются морально-нравственные и воспитательные идеи автора на примере произведений «Бахористан», «Саламан и Абсаль» и написанного в назидательном духе труда «Подарок благородным».

**Annotation:** This article analyzes the scientific heritage of Abdurahman Jami, as well as the educational significance of his works. In particular, the author’s moral and educational ideas are examined through the examples of “Baharistan,” “Salaman and Absal,” and the didactic work “A Gift to the Noble.”

**Kalit so‘zlar:** “Bahoriston”, ilmiy meros, Jomiy, pand-nasihath, ta’lim, sharq adabiyoti, nasr, pedagogik qarashlar, shaxsiy tarbiya.

**Ключевые слова:** «Бахористан», научное наследие, Джамии, нравоучение, образование, восточная литература, проза, педагогические взгляды, личное воспитание.

**Keywords:** “Baharistan”, scientific heritage, Jami, moral instruction, education, Eastern literature, prose, pedagogical views, personal upbringing.

Bizga ma’lumki, XV asr sharq renessansining yirik namoyandasi, mutafakkir shoir, tasavvuf falsafasining yetuk vakili asl ismi Abdurahmon Nuriddin ibn Ahmad bo’lgan Jomiy (1414-1492) buyuk siymolarimiz ichida munosib o’ringa ega hisoblanadi. O’zining diniy-tasavvufiy, falsafiy, tarbiyaviy va pand nasihat ruhida yozilgan asarlari bilan adabiyotimiz tarixiga salmoqli xissa qo’shgan.

Abdurahmon Jomiyning ilmiy- ma’rifiy merosi tasavvuf, falsafa, adabiyotshunoslik, tilshunoslik va bundan tashqari musiqa nazariyasiga oid 100 ga yaqin asarlari mavjud. Jomiyning ilmiy merosi durdonasi sirasiga “Salamon va Absol” asarini kiritsak mubolag’a bo’lmaydi.<sup>1</sup>

Alisher Navoiy Jomiyi ma’naviy ustoz va yaqin do’sti deb hisoblagan va uni “Shayx ul-mashoyix” deb ulug’lagan. Jomiy biror asar yozsa uni birinchi Navoiyga berib, asardagi kamchiliklarini aniqlashini buyurar ekan.<sup>2</sup>

Sharq mumtoz adabiyotida xamsachilik ananasi mavjud bo’lib unga Nizomiy Ganjaviy asos solgan. 1173-1179 yillarda “Maxzan ul-asror”(Sirlar xazinasini) nomli xamsaning ilk dostonini yozadi. 1180-1181- yillarda “Xusrav va Shirin” ikkinchi doston yaratiladi. Axsatan I buyrug’i bilan 1188-yilda “Layli va Majnun” asari, 1196-yilda shoh Baxrom haqidagi “Haft paykar”(“Yetti go’zal”) va 1196-1201- yillarda “Iskandarnoma” nomli Xamsaning so’nggi

<sup>1</sup> Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi. O’quv qo’llanma. -Toshkent-2020-B.212

<sup>2</sup> P.Shamsiyev. Ulug’ do’stlik lavhalaridan. Jomiy va Navoiy (to’plam). -Toshkent: «Fan», 1966 – B.7

dostonini yaratadi. Ganjaviy 28-yil mobaynida yozgan asarilari jamlab “Panj ganj” (“Besh xazina”) nomi bilan atalgan ilk “Xamsa” dunyo yuzini ko’radi.

Nizomiy Ganjaviydan yuz yil o’tib maydonga Xusrav Dehlaviy chiqadi. Dehlaviy(1253-1301) Nizomiy ananasini davom ettirib “Matla’ ul-anvor”(“Nurlarning boshlanmasi”), “Shirin va Xusrav”, “Layli va Majnun”, “Hasht behisht” (“Sakkiz jannat”) hamda “Oyinayi Iskandariy” (“Iskandar oynasi”) dostonlarini 1299-1301-yillarda yozib tugatadi.

Dehlaviydan so’ng Jomiy ananani davom ettiradi. Dastlab “Tuhfatul-ahror” (“Erkinlar tuhfasi”), “Subhat ul-abror” (“Yaxshilar tasbehi”), “Yusuf va Zulayho”, “Layli va Majnun” va “Xiradnomayi Iskandariy” nomli asarlarini 1485yilda yozib tugatadi. Jomiy xamsaga yangilik kiritib “Silsilat uz-zahab” va “Salamon va Absol” asarlari qo’shib “Xamsa” sini yeti dostonga yetkazadi. U o’z “Xamsa” sini “Haft avrang” ya’ni Yetti taxt deb nomlaydi.

Alisher Navoiy 1483-1485-yil davomida 51 ming misradan ortiq besh doston “Xamsa” ni yozib tugatadi. Ilk doston “Hayrat ul-abror”, 1484-yilda “Farhod va Shirin”, “Layli va Majnun” hamda “Sab’ayi sayyor” dostonlarini va so’nggida “Saddi Iskandariy” dostoni yozadi va o’z “Xamsa” sini yaratadi. Navoiy yozgan Xamsaning boshqa Xamsalardan farqi turkiy tilda yozadi.

Abdurahmon Jomiyning “Silsilatuz-zahab”, “Tuhfat ul-ahror” (“Erkinlar tuhfasi”), “Subhat ul-abror” (“Yaxshilar tasbehi”), va “Salamon va Absol” kabi bir qator asarlari pandnoma janrida yozilgan bo’lib, o’z davrining eng dolzarb masalalari yoritib berilgan.

Jomiy “Bahoriston” asarida ta’lim tarbiyaga alohida e’tibor qaratadi. Yosh avlodni bilim olishga undaydi. Asarlaridan birida zaruriy bilimlarni qunt bilan, e’tibor bilan bolalikdan o’rganib borish kerakligini ta’kidlaydi. Keraksiz bo’lgan o’tkinchi narsalarga vaqt sarflab umrni o’tkazishni qoralaydi.

Jomiyning fikricha, insonning ma’naviy dunyosi bir nechta qatlamlardan iborat. Ularning uchalasi birlashsagina inson komillika erishadi aks holda o’z ilmini yuksaltira olmaydi deb hisoblaydi va bularning birinchisi – axloqiy tarbiya, keyingisi ilmiy tarbiya so’nggisi ruhiy tarbiya. Bu uch hislat uyg’unlashsa insonni hallollik, adolat ezgulik kamtarlik kabi ezgu yo’lga boshlaydi.<sup>3</sup>

Jomiyning “Salomon va Absol” asarida ko’plab pand-nasihat ruhida yozilgan hikmat va hikoyatlar mavjud bo’lib ular insonni poklanishga, to’g’ri yo’lda yurishga undaydi. Masalan, bir hikoyatda bir mayparast inson kunlarning birida baland martabaga erishadi va yonidagilar undan qanday qilib bu darajaga erishganligini so’raydi. Shunda u may ichishni batamom tugatganini, tavba qilganini va qayta ichmasligi takidlaydi va may ichadigan bo’lsa lavozimidan ajralishini aytadi.

Bundan tashqari, pand nasihat, talim-tarbiya xarakteridagi 20ta masaldan iborat bo’lgan “Olijanoblarga tortiq” dostoni 1481-1482-yillarda yozilgan bo’lib ahloqiy g’oyalarni targ’ib qilishga qaratilgan.

Adabiyotshunos va faylasuf Abdurahmon Jomiy 1492-yilda Hirotda vafot etadi. Abdurahmon Jomiy o’z davrining insonparvari, marifatparvari bo’lib hayotlik chog’ida insonlar mehrini e’tiborini qozongan. U yozgan asarlar adabiyotimiz tarixiga ulkan xissa qo’shgan va hozirgi kunda ham o’z dolzarbligini yo’qotmagan.

<sup>3</sup> Kurbonov H. Sharq falsafasi va pedagogik g’oyalarning taraqqiyoti. – Toshkent: Yanginashr, 2022.

**Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. P.Shamsiyev. Ulug' do'stlik lavhalaridan. Jomiy va Navoiy (to'plam). –Toshkent: «Fan», 1966 – B. 150
2. Baxtiyorova.D.D//Abdurahmon Jomiyning ilmiy merosi va pedagogik qarashlari.2026 – B. 6
3. Sharq mutafakkirlarining ilmiy merosi.O'quv qo'llanma.2020 – B.276
4. Kurbonov H.Sharq falsafasi va pedagogik g'oyalarining taraqqiyoti.\_Toshkent:Yangi nashr.2022